



UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI VA UNING QO'LLANILISHI

**Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, 11-umumiy o'rta
ta'lim maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi –
Abdunazarova Nargiza Uktamboyevna**

Annotatsiya: Ushbu tezisda sun'iy intellekt haqida berilgan tushunchalar o'rganilgan. Shuningdek, oliy va umumiy o'rta ta'lim tizimida qay darajada foydanilishini solishtirilgan. Umumiy o'rta ta'lim tizimida qanday maqsadda foylanilishi aniq namuna asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ChatGPT, Telegram, Google Gemini, Yandex AI, Siri, Skywork, Canva, Wordwall, Openread.

XXI-asrda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda uni har bir sohada joriy etish tizimi bosqichma bosqich amalga oshirilib kelmoqda. Bugungi kunda biz hayotimizni zamonaviy ta'lim texnologiyalarisiz, kundan kunga yangilanib borayotgan raqamli dasturlar va qurilmalarsiz tasavvur eta olmaymiz. Shu bois, sun'iy intellektga bo'lgan ehtiyojimiz tobora ortib bormoqda. Xo'sh, sun'iy intellekt nima ekanligini va uning ta'lim tizimidagi o'rni qay darajada ekanligini ko'rib chiqamiz.

Biz sun'iy intellekt haqida gapirganimizda, ko'z oldimizga aqlli telefonlarimiz(smartfon)da ishlatiladigan zamonaviy dasturlardan ChatGPT, Telegram, Google Gemini, Yandex AI, Siri, Skywork, Canva, Wordwall, Openread va shu kabilar keladi. Lekin, ulardan foydalanishning asosiy maqsadi nimada ekanligini hali to'liq anglab olganimiz yo'q, ayniqsa ta'lim sohasida bu tizim etarlicha kirib kelmagan. Xususan, "Sun'iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) - inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi¹" deb ta'rif bergan zamonaviy internet sahifasida, ayrim olimlar esa, "Sun'iy intellekt deb, odatda kompyuter texnologiyalari orqali, inson salohiyatini kengaytiradigan, o'rganish, axborot ustida harakatlar qilish, uni tushunish va tanib olish qobiliyatini oshirishga mo'ljallangan aqlli tizimlar sifatida tushuniladi"². Shu bilan birga, "Inson aql-zakovati va uning sun'iy ravishda yaratilgan prototipi o'rtasidagi o'xshashliklarni izlashdan, insonning va kompyuterning muammolarni hal qilish usullarini taqqoslashga o'tish mavjud"³.

Oliy ta'lim tizimida chunonan SI ko'p uchratishimiz mumkin. Talabalar va OTM ning pedagogik xodimlari o'quv jarayonida samarali foydalanishni anchagina yo'lga qo'ygan. Talaba yoshlarni qiynayotgan har qanay savolni SI dan oqilona foylangan holda masalaning echimini topishib, ta'lim tizimiga joriy etishda o'z hissasini qo'shishmoqda. Ammo, umumiy o'rta ta'lim tizimida esa bu sohaning rivoji anchayin oqsamoqda desam adashmayman. Sababini keltiruvchi omillar anchagina va shu omillar bartaraf etilsa,

¹ uz.wikipedia.org/wiki/Sun'iy_intellekt

² Доэрти П., Уилсон Дж. Человек + машина. Новые принципы работы в эпоху искусственного интеллекта / пер. О. Сивченко, Н. Яцюк. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019 - 304 с.

³ Сильный искусственный интеллект: На поДступах к сверхразуму / А. ВеДяхин и Др. М.: Интеллектуальная литература, 2021. - 232 с.



o'quvchilariga dars o'tishda o'qituvchiga anchagina engillik va dars samaradorligini oshishiga kattagina ta'sir qiladi.


Shu munosabat bilan ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish nafaqat an'anaviy ta'lim texnologiyalari bilan taqqoslaganda afzalliklarni beradi, balki sun'iy intellektning fanlari kesimida duch keladigan muammolarning echimini tizimlashtirishda asosiy ko'makchi bo'la oladi.

Dars jarayonlarida SI dan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini yanada ortishiga hamda o'quvchilarning xatolarini o'qituvchiga nisbatan ancha osonroq aniqlashga va ularni ko'rsatishga yordam beradi. Xatolarni tezroq ilg'ab olish orqali o'quvchilar o'z vazifalarini samaraliroq va aniqroq anglashlari mumkin.


Hamuna sifatida, 5 sinf o'quvchilari uchun Ingliz tili fanidan SI ga oid "wordwall.net" dasturida "Feelings and emotions" mavzusi yaratilgan ishlanmani ko'rishingiz mumkin.

Bunda, mavzuga oid lo'g'atlar berilgan bo'lib, o'quvchilari ushbu so'zlarni yanada mukammalroq qilib esda qolishi uchun, SI dasturidan foylanilgan. Lo'g'atlarni mustahkamlash maqsadida berilgan ikkita vazifa o'quvchilarning nafaqat lo'g'at boyligini oshirishga, balki tinglab tushunish va gapirish kunikmasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi havolalar orqali berilgan vazifalarga kirishingiz mumkin:

<https://wordwall.net/resource/106402774/ingliz-tili/feelings>



<https://wordwall.net/resource/106418811>



Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish ta’limning olish imkoniyatlarini oshirishga, o‘quvchilarning diqqati va qiziqishini ortishiga katta sababchi bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Доэрти П., Уилсон Дж. Человек + машина. Новые принципы работы в эпоху искусственного интеллекта / пер. О. Сивченко, Н. Яцюк. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019 - 304 с.
2. Сильный искусственный интеллект: На подступах к сверхразуму / А. Ведяхин и др. М.: Интеллектуальная литература, 2021. - 232 с.
3. uz.wikipedia.org/wiki/Sun'iy_intellekt
4. <https://wordwall.net/resource/106418811>
5. <https://wordwall.net/resource/106402774/ingliz-tili/feelings>